


## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2019 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra, 24,7 mingdan ortiq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 15,1 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar jalg qilingan.

**2019 yil 1 oktyabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va  
tashkilotlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyligi sonining 10,3 mingga yaqin korxona va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,0 % tashkil etdi.

**2019 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasiga jalb qilingan,  
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019 yil 1 oktyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (38,6 %) yaqin.

Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi (7,4 %)ni tashkil etdi.


Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiyligi sonidagi ulushi (5,7 %)ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi (3,9 %)ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi (1,8 %)ni tashkil etdi.

**2019 yil 1 oktyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat  
ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat  
turlari bo'yicha tarkibi, %**


*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6227,5 mlrd. so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 112,1 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (32,7 %), transport xizmatlariga (22,9 %), moliyaviy xizmatlarga (13,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,1 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

### **2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %**



## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi(yanvar-iyun oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (779,0 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (495,5 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (315,3 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (62,2 mlrd. so'mga) kabi xizmatlar hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


**Ma'lumot uchun:** 2018 yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 324,3 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 305,1 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 259,6 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 89,1 mlrd. so'mga oshgan.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>6227,5</b>	<b>112,1</b>
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	317,5	113,3
moliyaviy xizmatlar	860,5	150,9
transport xizmatlari	1 428,4	110,5
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	1 347,4	108,6
yashash va ovqatlanish xizmatlari	163,6	102,3
savdo xizmatlari	2 033,1	105,0
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	199,0	102,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	172,7	99,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	70,7	108,4
ijara xizmatlari	175,1	103,4
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	219,8	100,8
shaxsiy xizmatlar	225,0	104,1
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	128,8	132,3
boshqa xizmatlar	233,3	116,2

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (150,9 %), me'morchilik, sohasidagi xizmatlar (132,3 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,3%), transport xizmatlari (110,5 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (108,4 %), savdo xizmatlari (105,0 %), xizmat turlarida qayd etildi.

### 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ijara xizmatlari (103,4 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha (102,3 %) va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (100,8 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida uning ulushi 32,7 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport

xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %) egallaydi.

### 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %




2019 yil yanvar-sentyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 033,1 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,7 % ni

tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 324,3 mlrd. so'mga oshdi.

**Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar  
savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta  
salmoqqa ega.**



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 83,2 % ni tashkil etadi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 12,0 % ga yetdi.


Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,8 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik

jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobjiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

### 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %



2019 yil yanvar-sentyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 317,5 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi oylar(yanvar-iyun oylari)ga nisbatan o'sishi 114,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,9 % ni tashkil etadi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasi, darsliklar va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 163,6

mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,6 % ga yetdi.

### **Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**



**Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar**

**90,3 %**

**Yashash bo'yicha xizmatlar**

**9,7 %**

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar**

**100,0 %**


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 90,3 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 9,7 % ga to'g'ri keladi.

Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihamarini kreditlash ko'lamini kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2019 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 860,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati esa 150,9 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (92,0%) tashkil etadi.

## 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, %




**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha  
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi (mlrd. so'm), %**

	<b>Hajmi, mlrd. so'm</b>	<b>O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da</b>
Qashqadaryo viloyat	6 227,5	112,1
Qarshi sh.	3 109,1	118,1
Shahrisabz sh.	181,7	109,9
G'uzor	222,0	108,1
Dehqonobod	139,7	106,2
Qamashi	208,8	106,4
Qarshi	255,5	107,6
Koson	335,5	107,8
Kitob	290,9	108,5
Mirishkor	148,5	110,3
Muborak	200,9	101,0
Nishon	215,0	108,4
Kasbi	137,1	107,8
Chiroqchi	246,4	107,0
Shahrisabz	264,5	104,3
Yakkabog'	271,9	103,1

Hududlar o'rtasida eng katta hajm Qarshi shahri (3109,1 mlrd. so'm), Koson (335,5 mlrd. so'm), Kitob (290,9 mlrd. so'm), Yakkabog' (271,9 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Kasbi (137,1 mlrd. so'm), Mirishkor (148,5 mlrd. so'm), Dehqonobod (139,7 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoxda.


**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha  
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
o'sish sur'ati, %**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Muborak (101,0 %), Yakkabog' (103,1 %), Shahrisabz (104,2 %) tumanlarida kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.


### **2019 yil yanvar-sentyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumi hajmida hududlarning ulushi, %**



Hududlar o'rtaida xizmatlar umumi hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (49,8 %), Koson (5,4 %), Kitob (4,7 %), Yakkabog' (4,4 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtaida eng kam ulush Kasbi (2,2 %), Dehqonobod (2,2 %), Mirishkor (2,4 %) tumanlari to'g'ri keladi.

**2019 yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha aholi jon boshiga ko'rsatkichlar,**  
**%**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlar hajmining har chorakda o'sishi kuzatilmoxda. 2019 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan hajm 707,0 ming so'mga oshib, 1923,7 ming so'mga teng bo'lди. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 336,5 ming so'mga farq qildi.

Hududlar orasida bu ko'rsatkich Qarshi shahrida 11967,4 ming so'mdan, Chiroqchi tumanida 610,9 ming so'mgacha oralig'ida farq qildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning maksimal o'sishi Shahrisabz shahrida (108,0 %), Qarshi shahrida (122,1 %), Mirishkor tumanida (108,2 %) va G'uzor tumanlarida (106,1 %) kuzatildi.

Uncha yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Chiroqchi tumanida (104,3 %), Qamashi tumanida (104,1 %), Dehqonobod tumanida (104,0 %) qayd etildi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning kamayishi Muborak tumanida (99,0 %) kuzatildi.

